O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati Qo'qon shahar "Mehr-muruvvat" xayriya jamoat fondi vasiylik kengashining 2026 – yil 15 – iyuldagi 2 - sonli umumiy majlis

BAYONNOMASI

Kun tartibi: "Mehr-muruvvat" xayriya jamoat fondining ta'sischilar, vasiylik, taftish hayati va boshqaruv kengashi a'zolarini saylash haqida.

« 15 » iyul 2026 - yil **Qo'qon shahar**

Majlis raisi: Karimova X.

Kotibi: Abduraimov Y.T.

Qatnashganlar: X.Karimova, O'.Abdurahmonov, M.Qurbonova, Z.Inoyatova, X.Madaminova, B.Karimov, Sh.Turonov, R.Xusanov, J.Zaitov, Y.Abduraimov, F. Muzaffarova, N.Xusanova, M. Axmedova, R.Saliyev, M.Saidakbarova, R.Xusanov.

Majlisning mazmuni:

1. Vasiylik kengashi raisini saylash.
2. Boshqaruv kengashini saylash.
3. Taftish hayati a'zolarini saylash.

Eshitildi:

"Mehr-muruvvat" XJF vasiylik kengashi raisi X.Karimova so'zga chiqib majlisni ochiq deb e'lon qildi va yig'ilganlarni kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi va birinchi masala yuzasidan so'zladi: Xurmatli majlis qatnashchilari, xurmatli fond jamoasi, aziz hamkasblar! Bugun men uchun hayajonli va mas'uliyatli kun. Hayriya fondi Vasiylik kengashi raisi sifatidagi faoliyatimni yakunlar ekanman, ushbu davr mobaynida men bilan birga ezgu maqsadlar yo'lida sidqidildan mehnat qilgan har biringizga samimiy minnatdorligimni bildiraman. Ushbu fonddagi faoliyatim davomida mehr-oqibat, insonparvarlik va saxovat kabi yuksak qadriyatlar yo'lida xizmat qilish men uchun katta sharaf bo'ldi. Erishilgan har bir yutuq – bu jamoamizning birdamligi, fidoyiligi va tinimsiz mehnatining natijasidir. Men ushbu maskanni faqat lavozim bilan emas, balki qalbimning bir bo'lagi sifatida tark etmoqdaman. Birgalikda amalga oshirgan xayrli ishlarimiz, muhtoj insonlar yuzidagi tabassum va ezgu niyatlarimiz doimo xotiramda qoladi. Har biringizga fidokorona mehnatingiz, qo'llab-quvvatlaganingiz va ishonchingiz uchun alohida rahmat aytaman. Ishonchim komilki, fond bundan keyin ham o'zining ezgu maqsadlari yo'lida yangi marralarni zabt etadi va jamiyatimizga munosib xizmat qilishda davom etadi. Sizlarning barchangizga mustahkam sog'lik, oilaviy baxt, ishlaringizga rivoj va muvaffaqiyat tilayman. Ezgulik yo'lidagi xizmatlaringiz bardavom bo'lsin. Yana bir bor barchangizga samimiy tashakkur bildiraman. Ezgu ishlar yo'lida yana uchrashguncha! So'zim yakunida uzoq yillar vasiylik kengashi a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatgan R.Soliyev nomzodini vasiylik kengashi raisligiga tavsiya qilaman. Vasiylik kengashi a'zoligiga esa fondimizda faoliyat yuritib kelayotgan Rahmonjon Husanov va Shuhratjon Turonov nomzodlarini tavsiya qilaman.

Vasiylik kengashi raisligiga R.Soliyev va a'zoligiga R.Xusanov, Sh.Turonov bir ovozdan saylandi.

R.Soliyev so'zga chiqib bildirilgan ishonch uchun rahmat aytib, sidqi dildan ishlashlarini aytib o'tdi.

Ikkinchi masala yuzasidan R.Soliyev so'zga chiqdi va ikkinchi masala yuzasidan quyidagi so'zlarni aytdi: Fondimizning boshqaruv kengashi raisi va a'zolarini saylab olishimiz kerak. Men boshqaruv kengashi raisligiga Rustamjon Husanovni tavsiya qilaman. J.K.Zaitov, A.J.Kamolov, M.M.Saidakbarova va N.N.Husanovalarni esa boshqaruv kengashi a'zoligiga tavsiya etaman.

Boshqaruv kengashi raisi etib R.R.Husanov, boshqaruv kengashi a'zolari etib esa J.K.Zaitov, A.J.Kamolov, M.M.Saidakbarova va N.N.Husanovalar bir ovozdan saylandi.

Uchinchi masala yuzasidan R.Soliyev taftish hayati raisi Z.Inoyatova, X.Madaminova, B.Karimovlarga so'z berdi: Hurmatli fondimiz jamoasi! Bugun biz uchun unutilmas va hayajonli kunlardan biri. Chunki bugundan boshlab Taftish hayati raisi va hayat a'zolari sifatidagi faoliyatimiz o'z yakuniga yetmoqda. Avvalo, bizga bildirilgan yuksak ishonch uchun fond ta'sischilariga, Vasiylik kengashiga va jamoamizning har bir a'zosiga samimiy minnatdorlik bildiramiz. Ushbu mas'uliyatli vazifani bajarish davomida fond faoliyatining shaffofligi, qonuniyligi va samaradorligini ta'minlash yo'lida bor bilim va tajribamizni safarbar etishga harakat qildik. Taftish hayatidagi faoliyatimiz davomida biz nafaqat mas'uliyatli vazifani ado etdik, balki fidoyi, vatanparvar va ezgu maqsad yo'lida birlashgan insonlar bilan yelkama-yelka ishlash baxtiga ham muyassar bo'ldik. Bu davr biz uchun katta hayotiy va kasbiy tajriba maktabi bo'ldi. Bugun ushbu vazifalarni yangi tarkibdagi hayatga topshirar ekanmiz, ularga mas'uliyatli faoliyatlarida muvaffaqiyat, xolislik va mustahkam iroda tilaymiz. Ishonamizki, ular fondning ochiqligi, halolligi va taraqqiyoti yo'lidagi ezgu an'analarni munosib davom ettiradilar. Biz esa fondning ravnaqi va xalqimiz manfaatlariga xizmat qiluvchi ezgu tashabbuslarni bundan keyin ham qo'llab-quvvatlashga tayyormiz. Chunki lavozim yakunlanishi mumkin, ammo ezgu maqsadlarga bo'lgan sadoqat va hurmat hech qachon yakun topmaydi. Fursatdan foydalanib, fond rahbariyatiga, Vasiylik kengashiga, barcha xodimlar va hamkor tashkilotlarga samimiy hamkorlik, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlaganlari uchun yana bir bor chuqur minnatdorlik izhor etamiz. Endilikda taftish hayati raisligiga nomzod sifatida fondimizda uzoq yillar davomida samarali faoliyat yuritib kelayotgan Y.Abduraimov nomzodini tavsiya qilaman. Hayat a'zolariga esa F.Muzaffarova va M.Axmedova nomzodlarini taklif qilaman. Sizlarning barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar hamda fondimizga yanada yuksak marralarni zabt etishini tilab qolamiz.

Fondning taftish hayati raisi etib Y.Abduraimov, a'zolari etib esa F.Muzaffarova va M.Axmedova bir ovozdan saylandi.

Qatnashuvchilar masala yuzasidan bildirilgan takliflarni qo'llab - quvvatladilar va qaror qildilar.

Qaror qabul qilindi:

1. **Farg'ona viloyati Mehr - muruvvat hayriya jamoat fondining vasiylik kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, boshqaruv tarkibi 2-ilovaga muvofiq hamda hayriya jamoat fondining taftish hayati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**
2. **R.Xusanov fondni vasiylik kengashi, boshqaruv kengashi va taftish hayatiga yangi nomzodlar qayta saylanganligini adliya boshqarmasiga ma'lumot sifatida yetkazilishini ta'minlasin.**

Majlis raisi: **X.Karimova.**

KOTIB: **Y.Abduraimov.**

O’zbekiston Respublikasi Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar “Mehr-muruvvat” xayriya jamoat fondi vasiylik kengashining 2026 – yil 15 – iyuldagi 2 - sonli umumiy majlis bayonnomasiga asosan 2 – sonli

BUYRUQ


« 15 » iyul 2026 - yil Qo’qon shahar

1. Farg’ona viloyati Mehr - muruvvat hayriya jamoat fondining vasiylik kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, boshqaruv tarkibi 2-ilovaga muvofiq hamda hayriya jamoat fondining taftish komissiyasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. R.Xusanov fondni vasiylik kengashi, boshqaruv kengashi va taftish komissiyasiga yangi nomzodlar qayta saylanganligini adliya boshqarmasiga ma’lumot sifatida yetkazilishini ta’minlasin.

“Mehr - muruvvat” XJF vasiylik kengashi raisi: **R.Soliyev.**

O’zbekiston Respublikasi Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar “Mehr-muruvvat” xayriya jamoat fondi vasiylik kengashining 2026 – yil 15 – iyuldagi 2 - sonli umumiy majlis bayonnomasiga asosan 2 – sonli buyruq bilan tanishdim va ogohlantirildim.

T/r	Xodimlar F.I.SH	Imzo
1	Husanov Rustamjon Ravshanjon o‘g‘li	
2	Abduraimov Yorqinjon To‘lqinjon o‘g‘li	